

Til bilgan dil bilar

Til o'rganishga bag'ishlangan o'quv kurslari qaysidir ma'noda o'quvchilarni darsga qiziqtirishga va o'rgatishga qaratilgani bilan o'ziga xos. "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti talabalari bilan "Investudy" o'quv markaziga tashrif katta taassurotlarga boy bo'ldi.

Talabalarning shaxsiy va akademik yutuqlarini rivojlantirish, chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida 3 dekabr kuni "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti "Geodeziya, kartografiya va kadastr" ta'lim yo'nalishi 2-kurs 5-guruh talabalari bilan "INVESTUDY" o'quv markaziga tashrif buyurildi.

O'quv markazida talabalar ingliz tilini o'rganish bo'yicha o'quv kursi talablari bilan tanishdilar. Tanishuv jarayonida talabalar o'quv markazi tomonidan tashkil etilgan test orqali o'zlarining bilimlarini sinab ko'rishdi. Bundan tashqari talabalar uchun "Movie Club" ingliz tilida film ham namoyish etildi.



**"Yer resurslarini boshqarish" fakulteti "Geodeziya, kartografiya va kadastr" ta'lim yo'nalishi
2-kurs 5-guruh murabbiysi B.M.Uspankulov axboroti**

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov